



## XOTIN-QIZLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING KELIB CHIQUISHI VA ORTIB BORISHI SABABLARI

Suyarova Fotima Sobirovna

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich talabasi

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 28-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 06-mart 2023 yil

### KEY WORDS

*xotin, qiz, huquq, qonun, davlat,  
jinoyat, huquqbuzarlik.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning kelib chiqishi va ortib borishi sabablari atroficha tahlil qilingan.*



Bugungi kunda, xotin-qizlarning oila va jamiyatda o'z o'rnini topishi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi ko'p jihatdan yurtimizda mavjud sharoitlar hamda ularga ko'rsatilayotgan ko'makka bog'liq. Bunda nafaqat ayollarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va haq-huquqlarini har tomonlama himoya qilish, balki ular orasida jinoyatchilikning oldini olish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Shu jihatdan xotin-qizlarning g'ayriijtimoiy xulqiga sabab bo'luvchi omillarni o'rganish va bartaraf etish masalasi gender tenglikni ta'minlash bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar diqqat markazida turibdi. Ushbu masalalarga quyidagi rejalar orqali to'xtalib o'tsak.

Ayol deganda ko'z oldimizga eng avvalo, mo'tabar onamiz, qadrlı buvijonlarimiz, munis opa-singillarimiz keladi. Ularga qancha e'tibor, g'amxo'rlik qilsak, quvontirishga urinsak shunchalik munosibdir.

Chunki, mana shu ayollar dunyoda yangidan-yangi chaqaloq yig'isi eshıtılıshıgıa sabab bo'layotgan zotlardir. Dunyoda shunday bir zot borki, uni har kuni e'zozlasak ham, dillarini hushnud qilishga urinsak ham uning haqqini ado eta olmaymiz.

Bu mo'tabar zot- onadir. Shuning uchun ham yurtimizda ayollarga bo'lgan e'tibor va imkoniyatlar juda katta. Aynan shu e'tibor va imkoniyatlar natijasida ayollarimiz ko'plab muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Bunga misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin.

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda esa bu ko'rsatkich qariyb 25 foizga yetdi.*

Shuningdek, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi – 27 foizga, siyosiy partiyalarda – 44 foizga, oliy ta'lim tizimida – 40 foizga, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizga yetdi<sup>1</sup>.

Ammo ayollarimiz erishgan shuncha natijalarga qaramasdan hozirgi vaqtlarda afsuslar bo'lsinki, ayollar jinoyatchiligi tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ayollar jinoyatchiligi o'zi nima. Nega ayollar jinoyatga qo'l o'ryabdi. Ushbu savollarga javob berar ekanmiz jinoyat tushunchasiga to'xtalib o'tsak.

<sup>1</sup> [www.norma.uz](http://www.norma.uz)

Jinoyat – bu ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi. Jinoyat – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma'lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi. Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxs-ning xulq-atvori (xattiharakati, faoliyati)ni ifodalaydi.

Bilamizki jinoyat jamiyat hayoti uchun juda yomon hodisadir. Ammo shu jinoyat tushunchasi ayollar o'rtasida tarqalishi juda achinarli hol. Xo'sh ayollar o'rtasida jinoyatchilikning sodir bo'lishiga nimalar sabab bo'lmoqda. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, ayollar jinoyatchiligining oshishiga asosiy sabablardan biri bu oilada sog'lom muhitning shakllanmaganligi. Yana bir omillardan biri tashqi omillar hisoblanadi.

Ya'ni ayollarga bo'lgan tajavuz va zo'ravonliklardir. Bundan tashqari ishsizlik ham jinoyatchilikka sabab bo'lmoqda. Aynan shu omillar sababli ayollar jamiyatdagi o'z o'rnini yo'qotadi.

Keyin esa jinoyatchilikka qo'l uradilar, So'nggi yillardagi statistikalargaga qaraydigan bo'lsak, ayollar o'rtasida jinoyatchilikning firibgarlik va tovlamachilik kabi turlari nihoyatda ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. 2017 yilda ayollar o'rtasida firibgarlik har ming nafarga 13.3 foizni tashkil qilgan bo'lsa 2022 yilda bu ko'rsatkich 16,9 foizni tashkil qilmoqda. Bundaan tashqari 2021 yilda O'zbekiston ishsiz ayollar va 18-30 yoshdagi xotin qizlar jinoyatchiligi o'rtacha 2 foizga ortgan<sup>2</sup>.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, jamiyatimiz tayanchi bo'lgan ayollarimiz o'rtasida jinoyatchilik oldini olish har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Chunki har bir ayol bizning kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizning onasi hisoblanadi.

Bilamizki har bir farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchiliklarning oldini olish uchun quyidagi bir necha ishlarni qilishimiz lozim deb hisoblayman.

1. Har bir oilada sog'lom muhitni yaratish
2. Maktabda jinoyatchilik haqida kengroq tushunchalar berish
3. Xotin qizlar uchun keng ish o'rinlari yaratish
4. Huquqiy madaniyat va huquqiy ongini oshirish

Qizlar psixologiyasini shakllantirish ya'ni ularning psixologiyasi kuchli bo'lsa jinoyatga qo'l urmaydi deb hisoblayman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Jinoyat huquqi darslik
2. www.stat.uz
3. www.norma.uz

<sup>2</sup>[www.stat.uz](http://www.stat.uz)